ADABIYOTDA OTA VA BOLALAR MUAMMOSI YUZAGA KELISHINING O'RGANILISHI

Abdujalolova Muxlisa Namozov qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va

adabiyoti universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Oilaviy munosabatlar milliy va jahon adabiyotining doimiy bosh mavzularidan biri bo'lib kelgan. Shular orasida ayniqsa ota va bola o'rtasidagi rishta alohida chizgilar bilan tasvirlanuvchi sahnalardan biri bo'ladi. Ushbu maqolada adabiyotdagi ota va bolalar muammosi yuzaga kelishining o'rganilishi haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: milliy adabiyot, jahon sahni, ota va bolalar, oilaviy muammolar, shaxsiy rishtalar va h.k.

Аннотация: Семейные отношения были одной из главных тем отечественной и мировой литературы. Среди них отношения между отцом и ребенком — одна из сцен, изображенных особыми линиями. В данной статье подробно описаны исследования проблемы отцов и детей в литературе.

Ключевые слова: национальная литература, мировая сцена, отец и дети, семейные проблемы, личные связи и др.

Annotation: Family relations have been one of the main themes of national and world literature. Among them, the relationship between the father and the child is one of the scenes that are depicted with special lines. This article describes in detail the study of the problem of fathers and children in the literature.

Key words: national literature, world stage, father and children, family problems, personal ties, etc.

Ota va o'g'il o'rtasidagi rishta boshqa munosabatlarga o'xshamaydi. Ota - o'g'lining hayotidagi birinchi qahramon. O'g'il bola tug'ilgandan boshlab, otasi uning hayotini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'g'liga doim yaxshi saboq berib, to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Ota o'g'lining bolaligidan uning do'sti, maslahatchisi va eng yaqin do'sti bo'lib qoladi. Adabiyotda ota va o'g'il o'rtasidagi rishtalarni tasvirlaydigan romanlar, hikoyalar, qissalar juda ko'p. Asarlarning ba'zilari ota-o'g'il munosabatlari haqida jiddiy aks ettirilgan bo'lsa, boshqalari ota-ona baxtsizligi haqidagi qiziqarli komediyalardir. Misol qilib aytadigan bo'lsak, "Aka-uka Karamazovlar" – rus yozuvchisi Fyodor Dostoyevskiyning qalamiga mansub so'nggi roman bo'lib, rus va jahon adabiyotining durdona romanlaridan biri hisoblanadi. Dostoyevskiy shu davrda barcha joyda tartibsizlikni, ichki tanazzulni, ijtimoiy tanazzulni, oilaning parchalanishini, xudbinlik va o'z xohish-irodasining kuchayishini, axloqiy me'yorlar va ma'naviy qadriyatlarning butunlay yo'qolishini ko'radi va bularning barchasi "Karamazovlar oilasi" boshlig'i Fyodor Pavlovich Karamazov timsolida to'liq namoyon ettirilganligini ko'rishimiz mumkin. Fyodor Pavlovich Karamazov har qanday korruptsiyaning manbasini va shu bilan birga, e'tiqodsizlik va buzuqlik bilan kasallangan ijtimoiy organizmning o'limini o'zida aks ettiradi. Asarning markazida uchta aka-uka Dmitriy, Ivan, Aleksey borliqning asosiy sababini va yakuniy maqsadlari haqida savollarga javob topishga harakat qiladilar. Asarda qahramonlar aka-uka

Karamazovlarning pozitsiyalari umumlashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Asarning eng katta va asosiy qarama-qarshiligi oila boshlig‘i Fyodor Pavlovich Karamazov va uning to‘rt o‘g‘lining shakllanishida yotadi: qonuniy bolalari - Dmitriy, Ivan, Aleksey va yon tilanchi Lizavetadan asrab olingan Smerdyakov. O‘g‘illarini otalari taqdir taqozosi bilan tashlab ketishdi, bunda aynan taqdir taqozosi deyishimiz ham to‘g‘ri kelmas sababi, ota bolalarga qarashni o‘zi xohlamadi. Albatta, biz bunday inson qanday tarbiyachi va ota bo‘lishi mumkinligini tasavvur qilishimiz mumkin. Farzandlar voyaga yetganida esa, otasiga nisbatan dushmanlik va hatto nafratdan boshqa hech narsani boshdan kechirmaydilar va xis qilmaydilar ham. Mitya otasini uni talon-taroj qilganlikda ayblaydi. Buning ustiga, Fyodor Pavlovich unga Grushenkaning mehrini qozonishiga xalaqit beradi va bir necha bor gaazablangan Mitya otasini o‘ldirishi mumkinligini aytdi. Eng yomon gunohlardan biri esa – “ota-ona” ni o‘ldirish hisoblanadi. Dmitriy otasini “it” va “Ezop” deb ataydi, bu “hazil” va "injiq" degan ma’noni anglatadi. Otaning tashqi ko‘rinishining o‘zi o‘g‘lida salbiy va yo‘q qiluvchi tuyg‘ularni uyg‘otadi: “Balki men o‘ldirmayman, lekin o‘ldirarman. Bu yerda biz ota va to‘ng‘ich o‘g‘il o‘rtasidagi ayanchli munosabatni ko‘rishimiz mumkin. Fosiq va shafqatsiz ota Fyodor Pavlovich Karamazov hamma narsani masxara qiladi va har qanday imkoniyatda bema’nilik bilan shug‘ullanadi. O‘g‘illari go‘dak bo‘lganlarida, u yomon niyat bilan emas, balki ularni “unutib qo‘ygani” uchun ularni e’tiborsiz qoldirganini ham ko‘rishimiz mumkin. Kattasi Dmitriy, bir vaqtning o‘zida ham “Sodom” ni ham, “Madonna” ni ham chin dildan sevishga qodir bo‘lgan ehtirosli odam, otasi bilan pul ustida tortishadi va “iblis” ayol Grushenkaning manfaati uchun u bilan raqobatlashadi. Keksa odam o‘ldirilganda, aniq dalillar Dmitriyning jinoyat uchun hibsga olinishiga olib keladi, bu aslida to‘rtinchi va noqonuniy o‘g‘li, yomon niyatli epileptik Smerdyakov tomonidan sodir etilgan. Eng kenja qonuniy o‘g‘li Alyosha - Dostoyevskiyning haqiqiy Masih qiyofasini yaratishga urinishlaridan yana biri. Dono rohib Zosimaga ergashib, Alyosha xristian sevgisini amalda qo‘llashga harakat qiladi. Bunda barchasi yoshlikdan ota farzandiga yaxshi tarbiya bera olmaganligi deyishimiz mumkin.

Avvalo, Oila muqaddas hisoblanadi va davlat tayanadigan ustundir. Oila sevgi bilan qurilishi kerak, bu yengil – yelpi munosabatni nazarda tutmasdan, balki ikki inson bir birni har qanday vaziyatda tushunishini nazarda tutyabmiz.

Ota - bu so‘zni eshitganda har bir inson ko‘z o‘ngida farzandi uchun jonini berishga tayyor inson jonlanadi. O‘zbek tilining “tomli izohli lug‘at”ida ota so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Ota” farzandli, bola-chaqali er kishi (o‘z bolalariga nisbatan). Misol: Ota bo‘lmay, ota qadrin bilmas. Darhaqiqat, ota nasihati o‘laroq farzand kamolotga yetishadi, ulug‘ martabalarni egallaydi. Otasi undan rozi bo‘lgan farzand esa ikki dunyo saodatiga erishadi. Zero “Ota rozi - Xudo rozi”. So‘z san’ati yaralibdiki, yozuvchilar, shoirlar, adiblar bu mavzuga qayta qayta murojaat qilib kelishmoqda. Xalq og‘zaki ijodi namunalari hisoblangan dostonlar, maqollarda ham ota timsoli keng mushohadada yoritilgan. Lekin “Aka - uka Karamazovlar” romanida otaga nisbatan bu so‘zlarni ayta olmaymiz va ota bunday ta’riflarga ham munosib emas.

Adabiyotda ota va o‘g‘il o‘rtasidagi alohida rishtalarni tasvirlaydigan hikoyalar haqida ko‘p narsa bor. Asarlarning ba’zilari ota-o‘g‘il munosabatlari haqida jiddiy aks ettirilgan bo‘lsa, boshqalari ota-ona baxtsizligi haqidagi qiziqarli komediyalardir. Boshqalar yangi oilaga ega bo‘lish qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. Lekin bizga, tasvirlangan personajlarning ohangi yoki turlaridan qat’iy nazar, romanlar hamma uchun ham bir xil emasligini va ota bo‘lish yondashuvi emasligini ko‘rsatish uchur aslini olib qaraganda, bizda cheksiz ko‘p variantlar mavjud. So‘nggi yigirma yil davomida olib borilgan xalqaro tadqiqotlar otalar va ularning o‘smirlarning xavfli xatti-harakatlarining oldini olishda himoya rolini o‘rganish bo‘yicha ilg‘or bilimlarga ega. Tadqiqotlar ko‘pincha ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarni va ularning o‘smirlarning xavfli

xatti-harakatlariga ta'sirini o‘rganadi, ammo kamdan-kam hollarda o‘smirlarning otalari yoki otalari bilan munosabatlarining xavfli xatti-harakatlarning oldini olishdagi o‘ziga xos roli. Uchta asosiy gipoteza tekshirildi: birinchidan, munosabatlar sifatining nazariy jihatdan moslashtirilgan o‘lchovlari nomog‘lik jihatdan tasdiqlanadi; ikkinchidan, otaning yashash maqomi guruhlari bo‘yicha munosabatlar sifati o‘lchovlarida unchalik katta farq bo‘lmaydi; uchinchidan, ota-ona munosabatlarining sifati, otaning yashash holatiga (o‘smir otasi bilan birga yashaganmi yoki yo‘qmi) yoki "ota" biologik otami yoki yo‘qmi, xavf-xatarli xulq-atvorning kuchliroq bashoratchisidir. Ota-ona munosabatlarining sifati ota-onalarning xatti-harakatlari inventarizatsiyasining qayta ko‘rib chiqilgan bolalar hisobotining "Qabul qilish" kichik o‘lchovi, yosh kattalar bilan foydalanish uchun bola va ota-ona muloqotidan qo‘rqish shkalasi va ushbu tadqiqot uchun ishlab chiqilgan otalik sifati bilan aloqa qilish vaqti o‘lchovi bilan o‘lchandi. Faktor tahlilini o‘tkazgandan so‘ng, Ota sifati bilan bog‘lanish vaqti shkalasi uchta omilga ega ekanligi aniqlandi: otaning mavjudligi, birgalikda shug‘ullanadigan faoliyat va o‘g‘ilning otasi bilan vaqt o‘tkazishga motivatsiyasi (shu jumladan, o‘g‘ilning o‘tkazgan vaqtidan zavqlanishi). Bu ota-o‘g‘il aloqasining o‘tmishdagi kontseptsiyalarini kengaytirish imkonini beradi, bu odatda faqat vaqt va mashg‘ulotlar miqdorini baholaydi. Ota-ona munosabatlari sifati o‘lchovlari kuchli bog‘liqligi aniqlandi. Har bir mamlakatda bolalar tarbiyasiga oid, ularga bag‘ishlangan yoxud maxsus yaratilgan ijod namunalari u haqdagi istilohlarni ham vujudga keltiradi.

Jumladan, o‘zbek bolalar adabiyoti tarixida folklordan tashqari, didaktik adabiyot, bolalar kitobxonligi, ma'rifatparvarlik adabiyoti, milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti tushunchalari uning shakllanishidagi asosiy omillar hisoblanadi. Hodisaning maydonga kelishi, uning ilmiy iste'molga olib kirilishi, nihoyat, mustaqil fan sifatidagi takomili esa yaxlit tizimni tashkil etadi.

Ota haqida xalq og‘zaki ijodining go‘zal namunasi bo‘lmish maqollar ham talaygina. O‘zbek xalq maqollarida boshqa manbalarga qaraganda ota shaxsining mo‘tabarligi, azizligi, qadr-qimmati masalalari aniq-ravshan va tushunarli tasvirlangan. Jumladan, "Onangni quyosh bilsang, otangni oy bil". Ushbu maqolda onangni quyosh deb bilsang, otangni oy deb bil, chunki oy va quyoshsiz hayotimizni tasavvur qilib bo‘lmaganidek, ota-onasiz ham hayotimiz mazmunsizdir. "Otang o‘tirgan uyning tomiga chiqma" yoki "Otang jinni bo‘lsa bog‘lab boq" bu maqolda otaning hurmatini joyiga qo‘yish haqida va ota kim bo‘lishidan qat'iy nazar e'tibor berish va qarash haqida gap ketmoqda. Darhaqiqat, qadim zamonlardan xalqimiz ota siymosini muqaddas bilib, e'zozlab kelishgan. Ota obrazi jahon adabiyotida ham alohida o‘rin tutadi. Jahon adabiyotida bu mavzuda yaratilgan asarlarga misol qilib, Turgenevning "Otalar va bolalar", Onore de Balzakning "Gorio ota", Fridrix Shillerning "Qaroqchilar" kabi asarlarni keltirishimiz mumkin. O‘zbek adabiyotida ham o‘z asarlarida ota obrazini yaratgan ijodkorlar talaygina. Jumladan, Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar", Shukur Xolmirzayevning "O‘zbek bobo", Muxtor Xudoyqulovning "Otam haqida hikoyalar", Isajon Sultonning "Qismat", Omon Muxtorning "Oppoq qor", Fayzulla Salayevning "Uzro" asarlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bizga ma'lumki aynan "ota" timsoli keng yoritilgan, ya'ni bosh siymo darajasiga olib chiqilgan asarlar nihoyatda kam, lekin bor. Shunday asarlardan biri atoqli yozuvchimiz Ulug‘bek Hamdamning "Ota" romanidir. Bu romanda haqiqiy o‘zbek otasi siymosiga duch kelasiz. Yozuvchi o‘zi yozganidek bu asar "chin otalarga bag‘ishlanadi". Asar muallifi bu voqeani yoshligida o‘zi yashaydigan viloyatda, ya'ni Andijonda bo‘lib o‘tganini, eshitganlarini ancha yillar bo'lganini ta'kidlaydi.

O‘zbek adabiyotida bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui tom ma'noda bolalar adabiyotini tashkil etgan bo‘lsada, asosan, sof badiiy asarlar bu tushuncha mohiyatini anglatishi taomilga kirganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Bolalar o‘qishi uchun mo‘ljallangan asarlar barcha xalqlar tarixida qadimdan davom

etib kelgan. Jumladan, o‘zbek bolalar adabiyoti Sharq yozma adabiyotida “pandnoma”, “ma’vizatnoma”, “nasihatnoma”, “axloq kitoblari” singari nomlar bilan tasnif qilinuvchi asarlar zaminida voqelikka aylangani, shuningdek, uning shakllanishi ma’rifatparvarlik va maktab-maorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog‘liqligi ayni haqiqat. Bolalar adabiyoti avvalo, turli yoshdagi bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan so‘z san’atidir. U voqelikni aynan o‘n olti, o‘n yetti yoshgacha bo‘lgan bolalar idroki, tasavvuri, tafakkur obrazlarida gavdalantiruvchi badiiy asar namunalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu jihatdan u umumbadiiy adabiyot bag‘rida shakllangan. Ayni paytda, u qator xususiyatlariga ko‘ra alohidalik kasb etadi. Masalan, V. Tendryakovning hikoyasida “To‘lash”, Turgenevning “Otalar va bolala” romanida bo‘lgani kabi, ikki avlod - ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar muammosini ko‘targan. Hikoyaning markazida fojiali taqdir Kolya Koryakin. Biz ko‘z oldimizda uzun bo‘yli, ingichka o‘spirinni ko‘rayapmiz, “bo‘yin cho‘zilgan, jag‘i o‘tkir, xira rangda noaniq tabassum”. U o‘n olti yoshda emas va lekin u allaqachon qotil – o‘z otasining qotili. Ammo bu fojia uchun Kolyaning hech biri aybdor emas. Bolani o‘rab olgan kattalar muammolarning oldini olishmadi, ular faqat o‘z muammolari haqida o‘ylashdi. Ularning hech biri o‘sib ulg‘aygan bolaning ruhiga qarashga urinmadi. Hech kim qiyin bo‘lgan narsani tushunmadi bu qiyin vaziyatda unga hamma narsa qiyin edi. Albatta, avvalo Kolyaning otasi Rafael Koryakin aybdor. O‘zining tartibsiz, mast, shafqatsiz hayoti bilan u har kuni o‘g‘lini jinoyatga undadi. Shunda bizga savol tug‘iladi: “Rafael doim shunday bo‘lganmi? Uni butun dunyoda nima achchiq qildi?”. Ushbu fojianing ildizi ancha chuqurroq. Rafaelning onasi Evdokiya o‘g‘ilni juda yosh, deyarli qiz tug‘di. “U sharmandalik bilan homilador bo‘ldi. Men qayg‘u bilan emizdim”, deb tez-tez eslardi u. Tergovchi Sulimov bilan suhbatda Evdokiya “bolasini qornida ham yoqtirmasligini” tan oldi va Rafael butun hayotini hech kimga, hatto o‘z onasiga keraksiz, sevilmaydigan his qildi. U sevishni o‘rganmagan, hatto o‘zini yomon ko‘rgan. Shunday qilib u ichishni boshladi. Har kuni xotini va o‘g‘lini masxara qilib, u o‘zini masxara qildi. Shu munosabat bilan ushbu fojiali naqshni to‘g‘ri tushuntirib bergan rus mutafakkiri V.V.Rozanovning so‘zlarini eslash kerak: “Azob chekayotgan bolalar, shuning uchun yuqori adolat harakati bilan bir-biriga mos kelmaydigan ko‘rinishni yanada qattiqroq qarash bilan biroz tushunish mumkinasl gunoh. Bolalarning yaxlitligiga, haqiqatan ham emasularning aybi - bu hodisa faqat ko‘rinadigan. Ularda yashiringan otalarning buzuqligi va ularning ayblari u bilan. Bu shunchaki o‘zini namoyon qilmaydi, hech qanday halokatli harakatlarda o‘zini namoyon qilmaydi. Ammo eski sharobu qancha jazo olmagan bo‘lsa, ular allaqachon bor. Ular bu azobni azob-uqubatlarida oladilar”.

Har bir mamlakatda bolalar tarbiyasiga oid, ularga bag‘ishlangan yoxud maxsus yaratilgan ijod namunalari u haqdagi istilohlarni ham vujudga keltiradi. Jumladan, o‘zbek bolalar adabiyoti tarixida folklordan tashqari, didaktik adabiyot, bolalar kitobxonligi, ma’rifatparvarlik adabiyoti, milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti tushunchalari uning shakllanishidagi asosiy omillar hisoblanadi. Hodisaning maydonga kelishi, uning ilmiy iste’molga olib kirilishi, nihoyat, mustaqil fan sifatidagi takomili esa yaxlit tizimni tashkil etadi. Bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui tom ma’noda bolalar adabiyotini tashkil etsa-da, asosan, sof badiiy asarlar bu tushuncha mohiyatini anglatishi taomilga kirgan. Bolalar o‘qishi uchun mo‘ljallangan asarlar barcha xalqlar tarixida qadimdan davom etib kelgan. Jumladan, o‘zbek bolalar adabiyoti Sharq yozma adabiyotida “pandnoma”, “ma’vizatnoma”, “nasihatnoma”, “axloq kitoblari” singari nomlar bilan tasnif qilinuvchi asarlar zaminida voqelikka aylangani, shuningdek, uning shakllanishi ma’rifatparvarlik va maktab-maorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog‘liqligi ayon haqiqat. Bolalar adabiyoti avvalo, turli yoshdagi bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan so‘z san’atidir. U voqelikni aynan o‘n olti-o‘n yetti yoshgacha bo‘lgan bolalar idroki, tasavvuri, tafakkur obrazlarida gavdalantiruvchi

badiiy asar namunalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu jihatdan u umumbadiiy adabiyot bag‘rida shakllangan. Ayni paytda, u qator xususiyatlariga ko‘ra alohidalik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, A.Ulug‘ov, G‘.G‘ulom NMIU, T – 2018
2. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, A.Ulug‘ov, G‘.G‘ulom NMIU, T – 2018, 62-63-b 1. “O‘zbek hikoyalari antologiyasi”, “Sharq” nashriyot-matbaa kontsernining bosh tahririyati. T – 1997
3. “Temur tuzuklari”, “ Shodlik” nashriyoti. Toshkent – 2019-yil, 99-bet)
4. A.Qodiriy “O`tkan kunlar” romani, “Navro`z” Toshkent – 2019-yil,25-bet.
5. A.Qodiriy “O`tkan kunlar” romani, “Navro`z” Toshkent – 2019-yil, 134-135-betlar)
6. Aslonov, S., & Ruzimurodova, Z. (2020). THE USE OF ACRONYMS AND INITIALISMS IN BUSSINES ENGLISH. Студенческий вестник, (12-5), 34-35.
7. Sherzodovich, A. S. (2020). The role of online teaching and innovative methods. Science and education, 1(3), 524-528.